

XALQARO MUNOSABATLARDA KUCHLAR MUVOZANATI

Ne'matjonov Farrukh

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy Fanlar fakulteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya : *Bu maqolada men xalqaro munosabatlarda asosiy konsepsiyalardan biri bo'lgan Kuchlar muvozonati haqida yozmoqchiman. Maqolada bu nazariyani yoritishda jahon hamjamiyati siyosatchilarining kuchlar muvozanati haqida fikrlari, kuchlar muvozanatiga qanday erishish, balansni qanday saqlash, kuchlar muvozanati haqida ikki asosiy qarama-qarshi fikr va eng asosiysi hozirgi dunyo tartibotida kuchlar muvozanati roli haqida bayon qilmoqchiman.*

Kalit so'zlar: *Balancer, xalqaro anarxiya, davlat, resurs, kuch, ittifoq, xalqaro konfliktlar.*

Xalqaro munosabatlar tizimida davlatlar kuch muvozanatini saqlab qolishga intilishadi. Boshqacha qilib aytganda, xalqaro tizimda bir davlatning dominantlik qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Xalqaro munosabatlarda kuchlar muvozanatini tushunish uchun bir necha tariflarni keltirib o'taman;

➤ Davlatning qo'shnilarini haddan tashqari kuchli bo'lib qolmasligi uchun qilgan harakati. Chunki bir millatning ma'lum chegaradan tashqariga ko'tarilishi boshqa barcha qo'shnilarning umumiy tizimini o'zgartiradi. Kuchlar muvozanati – qo'shni davlatlar o'rtasida o'ziga xos tenglik va muvozanatni saqlashga etibor hisoblanadi.

(Fenelon, 1835)

➤ Hech bir davlat mutlaq hukmronlik va boshqalarga hukmronlik qilish imkoniyatiga ega bo'lmasligi uchun ishlarni tartibga solish.

(Vattel, 1916)

➤ Kuchlar muvozanati siyosiy kuchni o'lchash mezoni bo'yicha davlatlarning o'rtacha kalibrini past darajada ushlab turish uchun umumiy tarzda ishlaydi. O'z saviyasini o'rtacha ko'rsatkichdan yuqoriga oshirish bilan tahdid qiladigan davlat deyarli avtomatik ravishda bir xil siyosiy yulduz turkumiga kiruvchi barcha boshqa davlatlar tomonidan bosimga duchor bo'ladi.

(Toynbi, 1934)

➤ Kuchlar muvozanati – Bu xalqaro hokimiyat bir nechta davlatlar o'rtasida taxminan tenglik bilan taqsimlanadigan haqiqiy holatni anglatadi.

(Morgentau, 1978)

➤ Agar biror bir davlat yoki blok haddan tashqari kuchli bo'lib qolsa yoki xavf tug'dirsa, boshqa davlatlar buni o'z xavfsizligiga tahdid deb bilishlari va o'z kuchlarini kuchaytirish uchun individual va birgalikda teng choralar ko'rishlari kerak.


(Klaude, 1962)

Yuqorida bir necha olimlar kuchlar muvozanati haqida aytishgan bir necha tariflarni keltirib o'tdik. Endi kuchlar muvozanatiga qanday erishish yo'llarini ko'rib chiqamiz:

Xalqaro tizimda kuchlar muvozanatiga erishish 2 yo'l orqali amalga oshiriladi:

1. har bir davlat o'z kuchini oshirish orqali
2. ittifoqlarga birlashish orqali

Birinchi yo'lni tahlil qilamiz :



Misol uchun davlat A xalqaro tizimda mabodo o'z kuchlarini oshirsa, boshqa davlatlar bundan asabiylashishadi, tahlikaga tushishadi. Agar davlat A dominant pozitsiyaga harakat qilsa, davlat B,D va hokazolar ham davlat A darajasiga chiqish uchun o'z resurslarini (harbiy, iqtisodiy, siyosiy) oshiradi .

Ikkinchi tip;

Lekin barcha davlatlar o'z kuchlarini oshirishga resursi yetmide. Masalan, AQSH o'zining harbiy saohiyatini oshirsa, Fransiya yoki Germaniyaning kuch borasida tenglashishi haqiqatga yaqin emas. Shu sababli AQSHning xalqaro tizimda yetakchiga aylanmasligi uchun Fransiya va Germaniya ittifoq tuzishlari kerak. Ya'ni ikkinchi yo'l ittifoq tuzishdir. Davlat A ga qarshi chiqish uchun davlat D va C birgalikda hamma resurslarini birlashtirishadi.

Kuchlar muvozanatida yana bir muhim nazariya mavjud. Bu urush hisoblanadi. Masalan, agar A davlat o'z kuchini oshirish maqsadida davlat B ga hujum qilsa, boshqa davlatlar bunga jim qarab tura olmaydi. Chunki agar A davlat o'z maqsadiga yetsa, xalqaro tizimda bu davlat kuchli xavfga aylanadi. Shu sababli, davlat D,C,N birlashib, davlat A ga hujum qilishlari kerak. Bu bilan ular davlat B ni himoya qilish uchun emas, balki o'zlarini xavfsizliklarini o'ylab shu ishni qilishlari kerak. Bugungi kun bilan bog'laydigan bo'lsak, Rossiya-Ukraina urushida G'arb davlatlarining va AQSHning Ukrainaga yordam berishi kuchlar balansiga erishishga misol bo'la oladi. Chunki agar Rossiya Ukrainani bosib olsa va

G'arb bunga qarab tursa, keyingi nishon g'arb bo'lishi norealistik holatdir ammo G'arb Ukrainani qo'llashga majbur. Chunki "Hartland" ga kim egalik qilsa, u dunyoni boshqaradi degan qarash mavjud (Makkinder)

Endi kuchlar muvozanati mohiyatini ochib beruvchi harakterlariga to'xtalamiz:

➤ Kuchlar balansi vaqtinchalik va beqarordir. Ya'ni biror bir kuchlar muvozanati tizimi qisqa vaqtgacha amal qiladi. Misol uchun XVI-XVII asr larda kuchlar muvozanatida Angliya, Fransiya , Germaniya asosiy davlatlar bo'lgan bo'lsa, hozirda Xitoy, Amerika, Rossiya asosiy davlatlardir.

➤ Kuchlar muvozanatiga aktivlik bilan erishiladi. Kuchlar muvozanatiga intervensiya orqali erishiladi. bu qandaydir spvg'a sifatida berilmaydi yoki o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Davlatlar buni himoya qilish uchun imkoniyatlarini sarflashga to'g'ri keladi .

➤ Samarali bo'lishi uchun kuchlar muvozanatining tashqi siyosati o'zgaruvchan va dinamik bo'lishi kerak.

➤ Haqiqiy kuch muvozanati kamdan-kam holatda uchraydi. Muvozanatning yagona sinovi urushdir va urush boshlanganda muvozanat tugaydi. Urush- kuchlar muvozanatining oldini olishga intiladigan va u boshlanganda muvozanat kuchlari tugaydigan vaziyatdir

➤ Kuchlar muvozanatida tinchlik abstrakt va utopikdir

➤ Katta derjava davlatlar KM ning aktorlaridir. Ya'ni katta davlatlar o'yinchilardir, kichik davlatlar esa kuzatuvchilar yoki o'yin qurbonlaridir.

➤ Milliy manfaat kuchlar muvozanatining asosidir



Endi kuchlar muvozanatida ikki xil qarash mavjud. Xalqaro hokimiyat ya'ni tizim anarxiyami yoki balancer mavjudmi ?

Menimcha bu realizm va liberalizmga bog'liq. Chunki realistlarga ko'ra kuch bu asosiy faktordir. Kimda ko'p power bo'lsa, o'sha hukmdor hisoblanadi. Liberalism tamoyiliga ko'ra, hamma xalqaro tizimda teng huquqlidir va xalqaro huquqga ko'ra biror davlatga agressiv bostirib kirish mumkin emas. Fikrimcha, hozirgi xalqaro tizimda bipolyar tizim va "balancer" mavjud emas. AQSH "balancer" bo'la olmaydi, bunga Rossiya va Xitoy yo'l qo'ymaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Dr. MUKTA JAIN, institute of law, 2020, 4-aprel nutqidan